

# Jinoyat Protsessida “Habeas Corpus Act” Instituting Tatbiq Etilishini Takomillashtirish Masalalari

Bozorov Maqsudali Maxmudovich<sup>1</sup>, Qo'chqorov Izzatbek Doniyor o'g'li<sup>2</sup>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada habeas corpus instituti, tushunchasi, mazmun-mohiyati, uning paydo bo'lish va rivojlanish tarixi, jinoyat-protsessida habeas corpus institutining tutgan o'rni, shuningdek jinoyat protsessual huquqini takomillashtirish borasida habeas corpus institutini qo'llashni takomillashtirish masalalari haqida so'z yuritilgan bo'lib, sohani takomillashtirish yo'lida olib borilayotgan islohotlar, ulardagi muammo va kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan taklif va tavsiyalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Habeas corpus, habeas corpus ad subjiciendum, jinoyat protsessi, qamoq, sanksiya, ehtiyot chorasi.

Jamiyat taraqqiyotida insonlarning haq-huquqlari va ularning tengligi masalasi ilg'or fikrli kishilarni muttasil jalb etib kelgan. Tarix sahifalari o'zida inson huquqlari masalasiga doir ko'plab e'tiborli voqea va faktlarni, xalqning intilish va harakatlarini muhrlagan hamмага ayon. Insoniyat taraqqiyoti tarixi shunday guvohlik beradiki, qayerda demokratiya ildiz otsa, o'sha joyda inson huquqlari, fuqarolarning tengligi masalasi alohida dolzarflik kasb etadi [1].

Inson huquqlarining shakllanishida Yevropaning tutgan o'rni albatta, salmoqlikdir, bu qit'a davlatlarida qabul qilingan qator hujjatlar inson huquqlarining shakllanishiga benihoya ijobiy ta'sir ko'rsatgan, shu jumladan, Angliyada 1215-yili qabul qilingan “Erkinlikning buyuk hartiyasi” hokimiyat va amaldorlarning oddiy fuqarolar haq-huquqlarini suiste'mol qilishning oldini olishga qaratilgan qator qoidalarni o'zida mujassamlashtirgan [2].

Inson huquqlari masalasida Angliya xalqining bevosita kurashi va bu kurashlarning mantiqiy natijasi sifatidagi yuqorida zikr etilgan hujjatlarning qabul qilinishi o'sha davr uchun juda katta ahamiyatga molik bo'lgan. Angliyadagi inson huquqlari borasida olib borilgan harakatlarni, bizningcha, demokratiya va inson huquqlari taraqqiyotiga AQSh, Fransiya kabi davlatlarning qo'shgan hissasi bilangina taqqoslash mumkin. Aytish joizki, bu buyuk davlatlarda demokratiya va inson huquqlarining shakllanishi va rivojlanishiga hayotbaxsh etgan g'oyalar qadimgi yunon faylasuflarining siyosiy-huquqiy qarashlari, sharq allomalarning yuksak insonparvarlik g'oyalari, ma'rifatparvarlik davri vakillarining ilg'or fikrlari va tabiiy-huquqiy qarashlarda o'zining ifodasini topgan.

“Habeas corpus akti” tushunchasi lotin tilidan olingan bo'lib “Habeas corpus ad subjiciendum”, so'zlari birikmasidan hosil bo'lgan “Siz odamni yetkazib berishga majbursiz” ya'ni (Hibsga olingan shaxsni yetkazib berish bo'yicha sud qarorining formulasi)-degan ma'noni bildiradi.

Ingliz konstitutsiyaviy huquqida “Inson erkinligini yaxshiroq ta'minlash shaklida harakat qilish va dengiz orqali qamoqqa olishning oldini olish” ma'nosini anglatadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida Habeas Corpus protsedurasi mustamlaka davridayoq qo'llanila boshlandi, mustaqillikka erishgandan so'ng u 1787 yilgi AQSH Konstitutsiyasi va alohida shtatlarning konstitutsiyalarida mustahkamlangan. Konstitutsiyaga ko'ra, bu kafolat faqat Kongress tomonida to'xtatilishi mumkin, ammo bunday huquq Prezidentga, rasmiy ravishda, agar bu milliy xavfsizlik nuqtai nazaridan talab qilinsa, ya'ni deyarli har qanday holatda shaxs daxlsizligining bir qator huquqiy kafolatlarini o'z ichiga olgan holatda berilgan [3].

2007-yildagi Habeas korpusini qayta tiklash to'g'risidagi qonun, 185-sonli shartli deb nomlangan qonun loyihasi 2007-yil 7-iyun payshanba kuni AQSh Senatining Adliya qo'mitasi tomonidan qabul qilingan.

Qonun loyihasining homiysi demokrat senator Patrik Lixi va (sobiq) respublikachi senator Arlen Spektrdir. Spekt demokratlarga qo'shilgan qonun loyihasini qo'llab-quvvatladi, Qo'mita uni 11 ga qarshi 8 ovoz bilan muhokama qilmasdan qabul qildi. Qonun loyihasi Guantanamo qamoqxonasidagi asirlarning AQSh sud tizimiga habeas korpus kirish huquqini tiklaydi, bu huquq ulardan olingan edi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasida rasmiy darajada O'zbekiston Respublikasida inson va davlat o'rtasidagi munosabatlarning yangi modeli mustahkamlangan. Endilikda inson huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e'tirof etilib, ularga rioya etish va himoya qilish endilikda davlatning majburiyati etib belgilandi. Bugungi kunda ushbu prinsipning huquqni qo'llash amaliyotida ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan sud huquq islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Erishilgan ijobiy natijalar qatoriga halqaro standartlarga javob beradigan amaldagi JPKning qabul qilinganligini, jinoiy jazolarni liberallashtirish orqali davlat va shaxs munosabatlarining tengligiga erishilganligini, bir qator protsessual majburlov va ehtiyot choralarini qo'llashga ruxsat berish huquqini sudlarga o'tkazilganligini, advokatura institutini takomillashtirish orqali shaxsning himoyalani huquqi dunyoning eng ilg'or mamlakatlari qonunlariga

<sup>1</sup> Toshkent davlat yuridik universitetining Ixtisoslashtirilgan filiali Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

<sup>2</sup> Toshkent davlat yuridik universitetining Ixtisoslashtirilgan filiali 3-kurs talabasi

tenglashtirilganligini e'tirof etish joiz. Shu bilan birga mamlakatimizda qonun ustuvorligi va uni ta'minlashga qaratilgan bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Qonunning ustuvorligi-huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat'iy hukmronligini nazarda tutadi. Qonun oldida hamma barobardir. Qonunning ustuvorligi shuni bildiradiki, asosiy ijtimoiy, eng avvalo, iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun javobgar bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida "Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas" [4], deya ta'kidlangan. Ushbu konstitutsiyaviy qoida umume'tirof etilgan halqaro huquqiy standartlarda ham aks ettirilganligini tan olish kerak. Xususan, 1966-yilda qabul qilingan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt" ning 9-moddasi 3-qismiga asosan "Jinoiy ayblov bilan qamalgan yoki ushlangan har bir shaxs sudya yoki qonun bo'yicha sud hokimiyatini amalga oshirish huquqi bo'lgan boshqa mansabdor shaxs huzuriga keltirilishi va ayblanayotgan shaxs oqilona muddat ichida ishi sudda ko'rilishi yoki ozod qilinishini talab qilish huquqiga ega" ligi qayd etilgan. [5]

Shu bilan birga, muayyan hollarda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qonun xujjatlarida belgilangan asoslar va tartibda muayyan protsessual majburlor va ehtiyot choralarini qo'llanilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining JPKga muvofiq sudga qadar ish yuritish va sud muhokamasi davrida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi surishtiruv, dastlabki tergov va suddan bo'yin tovlashini oldini olish, ularning keyingi jinoiy faoliyatiga chek qo'yish, ularning ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga xalal beradigan urinishlariga yo'l qo'ymaslik, hukmning ijro etilishini ta'minlash maqsadida ehtiyot choralarini qo'llaniladi. Ehtiyot choralaridan qaysi birini qo'llash to'g'risidagi masalani hal qilishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud JPKning 236-moddasida nazarda tutilgan asoslardan tashqari, qo'yilgan aybning og'irligini, ayblanuvchining shaxsini, mashg'ulot turini, yoshi, sog'lig'i, oilaviy ahvoli va boshqa holatlarni ham hisobga olishi lozim. Ushbu fikr o'zining mantiqiy yechimini 2005-yil 8-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida"gi farmoni asosida 2007-yil 11-iyulda qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasining "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining sudlarga o'tkazilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni bilan huquqiy yechimini topgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 18-sentyabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni bilan rivojlandi (ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish protsessual majburlor choralarini qo'llash sudning ruxsati asosida amalga oshirilishi belgilandi), shuningdek O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni (JPKda yangi uy qamog'i ehtiyot chorasining joriy etildi va u sudning ruxsati bilan qo'llanilishi tartibining o'rnatildi) bilan o'zining rivojlanishini davom ettirdi. Qayd etish kerakki, endilikda mamlakatimizda yuqorida keltirilgan choralarini qo'llashga sanksiya berish huquqining sudlar tomonidan amalga oshirilayotganligi inson huquqlarini adolati himoya qilishda adolat va huquq mezoni bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXII bobiga muvofiq mamlakatimizda odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi va favqulodda sudlar tashkil etilishiga yo'l qo'yilmaydi. Bugungi kunda dastlabki tergov davomida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash huquqi faqat sudlarga tegishlidir. Hozirda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash uchun prokuror, prokurorning roziligi bilan tergovchi tomonidan berilgan iltimosnoma beriladi va uni sud JPKning 243-moddasida belgilangan tartibda ko'rib chiqadi.

Qamoqqa olish–eng og'ir ehtiyot chorasini bo'lib, fuqaroning huquq va erkinliklarini hamda eng asosiy huquqlaridan biri–shaxsiy erkinlik va daxlsizlik huquqlarini jiddiy ravishda cheklaydi. Shu bois qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini boshqa ehtiyot choralarini ayblanuvchi (gumon qilinuvchi)ning munosib xulq-atvorini ta'minlash va jazodan bo'yin tovlashining oldini olish imkoni bo'lmagan hollardagina qo'llaniladi. Ayni paytda og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo'llamaslik yoki o'z vaqtida qo'llamaslik yangi jinoyatlar sodir etilishiga olib kelishi mumkinligini yoddan chiqarmaslik lozim. JPKning 242-moddasiga asosan ehtiyot chorasini sifatida qamoqqa olish Jinoyat kodeksida uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun Jinoyat kodeksida besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha qo'llanilishi mumkin. Ehtiyot chorasini sifatida qamoqqa olish ayblanuvchini (ayrim hollarda–ushlangan gumon qilinuvchini) jamiyatdan majburiy ajratish hamda, dastlabki tergov va jinoyat ishini sudda ko'rib chiqish jarayoni va jazoning ijro etilishini ta'minlash maqsadida, uni maxsus muassasada saqlashdan iborat. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasiga quyidagi belgilar xos:

- u ayblanuvchiga, ayrim hollarda esa–ushlangan gumon qilinuvchiga nisbatan qo'llaniladi, protsessning boshqa ishtirokchilariga nisbatan esa hech qachon qo'llanilmaydi;
- uni faqat qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yichagina qo'llash mumkin;
- uni qo'llash uchun shaxsning jinoyat sodir etishda ishtirok etganligini tasdiqlovchi dalillar bo'lishi zarur;
- u jinoyat ishi bo'yicha isbotlash vositasi hisoblanmaydi va ushbu choraning qo'llanilishi o'z-o'zicha shaxsning jinoyat sodir etganligiga dalil bo'lmaydi;
- shaxsga bir vaqtning o'zida faqat bitta ehtiyot chorasini qo'llanilishi mumkin. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini sodir etilgan jinoyat uchun jazo emas, balki uning asosiy vazifasi–huquqbuzarliklarning oldini olish, chunki ular jinoyat sodir etganlik yoki protsessual qoidani buzganlik uchun emas, balki ayblanuvchi (gumon qilinuvchi) protsessual majburiyatlarni bajarishini ta'minlash va u yangi jinoyatlar sodir etishi, tergov va suddan yashirinishi, ish

bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilishga urinishlarining oldini olish uchun qo'llaniladi. Yuqorida ko'rsatilganlar bilan bir qatorda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi, alohida hollarda, uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha qo'llanilishi mumkin. Alohida hollarda ushbu ehtiyot chorasi yuqoridagi talablardan istisno tariqasida ham qo'llanilishi mumkin:

1. Ayblanuvchi, sudlanuvchi tergov va suddan yashiringanida;
2. Ushlab turilgan gumon qilinuvchining shaxsi aniqlanmaganida;
3. Ilgari qo'llanilgan ehtiyot chorasi ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan buzilganida;
4. Ushlab turilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi, sudlanuvchi O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo'lmaganida;
5. Jinoyat qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tash davrida sodir etilganida, deb ko'rsatilgan. Bu borada ehtiyot choralarini qo'llashning "qonuniyligi" va "asoslanganligi" tushunchalariga izoh berish maqsadga muvofiq. Qonuniylik tergov organlaridan qonun ularning zimmasiga yuklagan huquq va majburiyatlarni aniq bajarishlarini talab qiladi. Protsessual huquq va majburiyatlarning uzviy aloqadorligi—tergovchi huquqiy maqomining o'ziga xos jihati. Masalan, JPKga binoan tergovchi asoslar bo'lgan taqdirda jinoyat ishini qo'zg'atish huquqiga ega. Shu bilan birga, bu uning bevosita majburiyati hamdir. Ushbu majburiyatni bajarmaslik qonuniylikni va xizmat burchini buzish deb baholanadi [6].

Sud-huquq sohasidagi islohotlar haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bugungi kunda bu borada juda katta ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.10.2016 yildagi PF-4850-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-yanvardagi "Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudyalari va sudlar apparati xodimlarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va u asosda Sudyalari oliy maktabining tashkil etilishi, faqatgina shu o'quv yurtini tamomlagan tinglovchilar sudyalik lavozimiga e'lon qilingan tanlovlarda ishtirok etishi mumkinligi sud tizimidagi islohotlarda muhim qadam bo'ldi.

"Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash O'zbekistondagi islohotlarda eng muhim o'rinda turadi. "2030 yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari mamlakatimizda har bir insonning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashni ko'zda tutadigan hech kimni e'tibordan chetda qoldirmaslik" tamoyili asosida amalga oshiriladi. Bu o'rinda so'z Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi ekspertlarining faol ishtirokida ishlab chiqilgan Inson huquqlari bo'yicha milliy strategiyani amalga oshirish to'g'risida bormoqda"—deb ta'kidladi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, qamoqqa olishning "asoslanganligi" shunchalar keng tushunchaki, uning ortida shaxsning O'zbekiston Respublikasining fuqarosi ekanligidan tortib, jinoyatchining xonadonida akvariumda baliqlar qarovsiz qolganligi va ularni boqishga odam yo'qligi holatigacha yetkazib borish mumkin. Shu bilan birga sud tomonidan shaxsni noqonuniy qamoqqa olinganligi yuzasidan qilgan shikoyati faqat "qonuniylik" nuqtai-nazaridan ko'rib chiqilishi va qonunda joriy qilingan qoidalarga asoslanishi kerak. Ya'ni, agar qamoqqa olish to'g'risidagi ajrimni tekshirish jarayonida qamoqqa olish ehtiyot chorasi JPK talablariga zid ravishda, noqonuniy qo'llanilgan bo'lsa shaxsni ozod qilish kerak, agarda JPK talablariga javob bersa, qonuniy ravishda iltimos kiritilgan bo'lsa, shaxsni qamoqqa olishning "maqsadga nomuvofiqligi" yoki "asoslanmaganligi" haqidagi vajlar inobatga olinmasligi lozim.

Shu bilan birga, amaldagi Jinoyat-Protsessual Kodeksiga ushlab turish protsessual majburlov chorasini noqonuniy qo'llanilganligi yuzasidan shikoyat berish va uni ko'rib chiqish tartibini joriy etish, mansabdor shaxslar tomonidan yoki o'z vakolatini suis'temol qilgan shaxslar tomonidan bila turib qasddan qilingan jinoyatlar sodir etilsa, ushbu turdagi qamoqqa olish ehtiyot chorasi qanday vakolatga ega bo'lishidan yoki imunitetga ega shaxslar tomonidan sodir etilganda istisno holatlarsiz ushbu turdagi ehtiyot chorasi qo'llanilishi kerak. Va shuni aytib o'tish ham joizki, bundan buyon hech qanday rahbarlik lavozimlariga qo'yilmasligi kerak u bu orqali sudning kuchi va sodir etilgan qilmishi uchun jazo og'ir bo'lishi mumkinligini bilishi darkor.

Bundan tashqari, qamoqqa olish ehtiyot chorasi qo'llanilganda aybsizlik prezumpsiyasini hisobga olib, uning yaqin qarindoshlarining kafolatlari va ba'zi bir cheklovlar asosida ozod qilinishi kerakligi belgilanishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar/ Сноски/ References:**

1. X.N.Boboiev, M.K.Ahmadshoeva. "Inson va uning huquqlari eng oliy qadriyat". T.: 2002-yil.
2. A.T.Saidov, B.L.Sultonov "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari". T.:Adolat,
3. Большой Энциклопедический словарь.: HABEAS CASE ACT <https://dic.academic.ru> ;
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.: 08.12.2018.
5. "Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro pakti Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1966-yil 16-dekabrda 2200 A (XXI) rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan.
6. D.M.Qurbonov. "Ehtiyot choralarini qo'llashda qonuniylikka rioya etish".: O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi "Jazoni ijro etish" departamenti.2022.